

OGAHIYNING "RIYOZU-D-DAVLA" ASARIDA
SHER MA'NOLI SO'ZLAR LINGVOPOETIKASIQuvonchoy Yusupova
UrDU doktorantiЛИНГВОПОЭТИКА СЛОВ С ЛЬВИНЫМ
ЗНАЧЕНИЕМ В РИЁЗУ-Д-ДАВЛЕ ОГАХИКуванчай Юсупова
докторант УрГУLINGUOPROETICS OF WORDS WITH THE
MEANING OF THE LION IN "RIYOZU-D-DAVLA"
BY OGAHIEQuvanchay Yusupova
Doctoral student UrSU

<https://orcid.org/0009-0009-8750-137X>

yusupovaquvonchoy400@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zoonimlarning Ogahiy tarixiy asarlari, xususan, "Riyozu-d-davla"da badiiy tasvir yaratishdagi ahamiyati, sher ma'noli so'zlarning turli tillarda ifodalanishi va asarda qo'llanilishi hamda ushbu so'zlar yordamida hosil qilingan poetik vositalar haqida atroflicha so'z boradi.

Kalit so'zlar: zoonimlar, chog'ishtirma tilshunoslik, o'z va ko'chma ma'no, real zoonimlar, unreal zoonimlar, sher tushunchasini anglatuvchi zoonimlar, poetonim, okkazonalizm, saj'.

Annotation. This article provides an overview of the historical works of Ogahi, in particular the role of zoonyms in the creation of the artistic representation in "Riyozu-d-davla", the expression and use of words with the meaning of lion in different languages in the work, and the poetic means created with the help of these words.

The key words: zoomics, consonant linguistics, proper and mobile meaning, real zoomics, and unreal zoomics, zoomics representing the concept of the lion, poetics, occasionalism, and so on.

Аннотация. В этой статье подробно рассматривается значение исторических произведений Огахия, в частности, "Риёзу-д-давля", в создании художественного образа, выражения и использование слов, имеющих значение льва, в произведениях, а также поэтические средства, созданные с помощью этих слов.

Ключевые слова: зооним, собственное и переносное значение, реальные зооним, нереальные зооним, зооним, представляющий понятие льва, поэтоним, окказионализм и др.

KIRISH. Ogahiyning "Riyozu-d-davla" asari lingvopoetikasida zoonimlarning ham alohida katta o'rni bor. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan mumtoz adabiyotda zoonimlarning badiiy san'at hosil qilishdagi o'rni maxsus o'rganilgan¹. Mavzu doirasidagi ishlar ko'lami ham ancha keng bo'lib, o'zbek tili, shuningdek, chog'ishtirma tilshunoslik

doirasida bajarilgan. Ogahiy tarixiy asarlarida zoonimlarning o'z va ko'chma, kam hollarda mushtarak (har ikkalasi) ma'nolarda ishlatilishi kuzatiladi. Lingvopoetika uchun ularning asosan ko'chma va mushtarak ma'nolarda ishlatilishi muhim. Chunki "ko'chma (okkazonial) ma'noda so'z o'z ma'nosida atab, nomlab kelgan denotatga

¹ Зарипов Б. П. Зоонимларнинг бадий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки (Алишер Навоий асарлари

асосида): филол. фан. номзоди дис... – Тошкент, 2002. 128 бет

qaysi bir jihatlari bilan o'xshash bo'lgan boshqa denotatlarni ifodalashga xizmat qiladi va u faqat ma'lum bir nutq sharoitida voqelanadi, ya'ni sof nutqiy tabiatga egadir". Tilshunoslikda so'zning o'z ma'nosini lisoniy ma'no deb talqin qilish ham mavjud. "So'zning lisoniy ma'nosi deganda ma'lum bir so'zning til jamiyati a'zolari ongida mavjud bo'lgan, shu so'z eslatilganda ularning ongida bu so'z bilan bog'lanadigan ma'nolar majmuasi tushuniladi. U jamiyat a'zolari uchun umumiylik va imkoniyat sifatida ularning ongida yashaydi. So'zning nutqiy ma'nosi lisoniy ma'noning nutqdagi tajallisi bo'lib, mohiyatan voqelik, hodisa va muayyanlik xususiyatlariga egadir². Bayon qilingan holatlarning barchasini mazkur asarda zoonimlarning qo'llanishi bilan bog'liq holatda ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

B.Zaripov yozishicha, "Alisher Navoiy asarida zoonimlarni ma'naviy va lafziy san'atlarda mahorat bilan ishlatgan. Shoir asarlarida boshqa so'zlar qatorida zoonimlar ham tasviriy vosita sifatida keng qo'llanilgan. Shoir zoonimlar orqali muayyan voqeahodisa va predmetlarni obrazli ifodalaydi. Obrazlilik esa badiiy asarning estetik qimmatini oshiruvchi muhim poetik vositalardan biri hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, zoonimni qo'llash orqali shoir obrazlarning jonli ifodasini ochib beradi. Bu esa asarning badiiy ta'sir kuchi, estetik quvvatini oshiradi"³. Xuddi shu fikrlarni Ogahiy tarixiy asarlarida zoonimlarning qo'llanishiga nisbatan ham bemalol tatbiq etish mumkin.

Har bir xalqning zoonimlar tizimi shu xalq tafakkurini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Chunki boshqa xalqlar nigohida ham deyarli bir-biridan farq qilmagan (masalan, it hamma joyda ham deyarli shunday) moddiy tushunchaga turli xil nigohlarni yuzaga keltirgan omillarni o'rganish ancha qiziqarli. Haqiqatan, "muayyan matn tarkibida qo'llangan zoonimlarning aksariyatida biror xalq, millat va jamiyatning mental xususiyatlari o'z ifodasini topadi... Zoonimlar denotativ ma'nolardan tashqari emotsional-ekspressiv maqsadda ham

qo'llanadi. Har bir tilda zoonimlar anglatadigan konnotativ semalar milliy-madaniy xarakterga ega bo'ladi... Shuning uchun "zoonim komponentli matnlarni o'rganish turli xalqlar madaniy xususiyatlari bilan tanishish imkonini beradi. Shuningdek, bu jarayon hozirda mavjud bo'lmagan hayvonlar haqida ma'lumotga ega bo'lish, madaniyatlar mushtarakligi yoki farqli jihatlarni aniqlash imkoniyatini ham yaratadi"⁴.

Asarda qo'llanilgan zoonimlarni birinchi navbatda inson nigohi va shuuridagi aks etishiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin: 1. Real zoonimlar. 2. Irreal zoonimlar.

MUHOKAMA. Tabiiyki, voqelikda mavjud jonzot nomlarini real zoonimlar deyish mumkin. Ular voqealikda mavjud bo'lmagan (qaqnus) yoki inson idrokidan tashqari (Buroq), shuningdek, real jonzotlarga nisbatan tasavvur qilinadigan (ajdaho) irreal zoonimlardan farqlanadi.

Asardagi real zoonimlarni lingvopoetik tahlil doirasida quyidagilarga ajratish mumkin:

Sher tushunchasini ifodalovchi zoonimlar. Turkiy tillarda arslon bo'lgan ushbu hayvonning ilmiy nomi *Panthera leodir*. Uning sof turkiy nomi arslon, qardosh tillarda asosan bir-biriga yaqin shakllarda ishlatiladi. Jumladan, chuvash tilida *arāslan*, yoqutchada *xaxay*, xakaschada *ala paris*, sho'r tilida *ala pars*, tofa tilida *lev*, tuva tilida *aržilan*, oltoy tilida *arслан*, qirg'izchada *arstan*, qozoqchada *aristan*, qoraqalpoq tilida *arisan*, no'g'oy tilida *arisan*, uyg'urcha *aslan*, qumiychada *arlan*, bolqorcha *aslan*, qrim-tatar va qaraim tillarida *arlan*, boshqird va tatar tillarida *arisan*, toshbitiklarda *arlan*, turkmancha *arlan*, ozarbayjon, turk va gagauz tillarida *aslan*⁵. RDning o'zida arslon so'zi ishlatilmagan. Lekin FIning Munis qalamiga mansub qismida ham, Ogahiy yozgan qismida ham sakkiz marta (*Arslon* va *Bekarslon* antroponimlari bu hisobga kirmaydi) ishlatilgani uning davr tilida faolligini ko'rsatadi: "...och arslondek doxil bo'lib,..." (FI, 976)

Sher so'zi eroniy tillarga mansubdir: "...ul shijoat ma'rakasining *sheri* safshikani..." (RD, 256^b)

² Саидова Х.А. Ўзбек тилида ҳайвон номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланиши: филол. фан. номзоди дис... – Тошкент, 1995. – Б. 27.

³ Зарипов Б. П. Зоонимларнинг бадий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки (Алишер Навоий асарлари асосида) филол. фан. номзоди дис. ... 2002. – Б. 13.

⁴ Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: филол.фан. фалс... докт... дис.: 2017 152 – Б. 12.

⁵ Энциклопедический словарь по тюркологии Гумбатова Гахрамана. Часть 1. – С. 59. //Электронный ресурс

Asarning deyarli barcha o‘rinlarida *sher* tushunchasini anglatuvchi zoonimlar ko‘chma ma’noda ishlatilgan. Faqat unga yanglig‘ so‘zi, -dek kabi qo‘shimchalar qo‘shilib, o‘xshatish hosil qilinganda uning o‘z (denotativ) ma’nosini ko‘ramiz: “Bori tortibon sher yanglig‘ nafir” (RD, 260^a); Va ahli islom shujaosi hizabr va zirg‘om yonglig‘ (RD, 350^a)

Sher tushunchasini anglatuvchi eroniy qatlamga mansub so‘zlardan biri *hizabr* هزير dir: “*hizabri* ma’rakayi korzor...” (RD, 295^b) Shuningdek, uning fors tilidagi yana bir shakli hijabr (“j” sirg‘aluvchi) ham ishlatilgan: “...hayjo arsasi *hijabri* darroni erdi” (RD, 353^a)

O‘zbek mumtoz adiblarimiz tilida *falak sheri* birikmasi aslida Asad burji ma’nosini anglatgani uchun uni joriy alifboda *Falak sheri* tarzida o‘g‘irish maqsadga muvofiq. Quyidagi misol asarda zoonimlarning o‘z va ko‘chma ma’nosi mushtarak qo‘llangan kam sonli matnlardan sanaladi: “Edilar pilbozu-yu sherneru, Falak sheri alar ollida tilku” (308^b)

Sher so‘zining arab tilidagi muqobili *asad* asarda Ali ibn Abu Tolib karrammallohu vajhahuning laqabi tarkibida ishlatilgan: Asadulloh – Allohning arsloni “*asadullohi-l-g‘olib* Ali ibn Abu Tolib raziallohu anhu...” (RD, 323^b) Shuningdek, *Asad* antroponimi ham mavjud: *Sayyid Asad to‘ra* (364^a) *Sher* ma’nosini beruvchi arabcha so‘zlardan biri *haydar* faqat antroponim (Buxoro amirining ismi) sifatida ishlatilgan. Asarda qo‘llanilgan sher tushunchasini ifodalovchi arabcha so‘zlardan biri *zayg‘am* ضيغم dir: “...korzor arsasining Rustami va gerudor beshasining *zayg‘ami* erdi,..” (282^a) Ushbu parchada besha (to‘qay) va *zayg‘am* so‘zlari orqali tanosub ham yuzaga keltirilgan. Xuddi shu ifodaga monand tasvirni asarning boshqa bir joyida ham ko‘ramiz: “Rustami ma’rakayi hayjo va *zayg‘ami* beshayi dag‘o erdilar,..” (304^a) Bu o‘rinda sher tushunchasini anglatuvchi so‘zlardan aynan *zayg‘am* tanlangani sajning birinchi bo‘lagidagi *Rustam* bilan izohlanadi. E’tibor qaratilgansa, jumladagi sajning har ikkala bo‘lagidagi so‘zlar ham ohang, ham ma’no jihatidan bir-biriga muvofiqlashadi, ya’ni Rustam – *zayg‘am* (sher); ma’raka (jang maydoni) – besha (to‘qay); hayjo (jang; jangdagi suron) – dag‘o (qo‘rslik). Shu tariqa jang maydoni suronining

Rustami va qo‘rslik to‘qayining arsloni ma’nosidagi ifoda yuzaga keladi:

Rustami ma’rakayi hayjo

↓ ↓ ↓

zayg‘ami beshayi dag‘o...

Asarda qo‘llanilgan arslon ma’nosidagi arabcha so‘zlardan biri *g‘azanfar* غضنفر dir. Shuning uchun ayrim lug‘atlarda (masalan, “Aqrabul-l-mavorid”da) bu so‘zning dag‘al xulqli odam; katta jussali kishi ma’nolari ham keltirilgan:

Hikmatda Sikandari zamona,

Quvvatda *g‘azanfari* yagona (RD, 332^a)

Ushbu sinonimik qatorga mansub so‘zlardan biri *zirg‘om* ضرغام dir. Uning siniq ko‘plik shakli *zarog‘ima* ضَرَاعِمَةٌ yoki *zarog‘im* ضَرَغِمٌ G‘G‘ *zarog‘im* ضَرَاعِمٌ dir⁶: “xunafshonlig‘ osmonning Bahromi va jonsitonlig‘ maydonining *zirg‘omi*” (RD,) Diqqat qilinsa, bu o‘rinda, yuqordagi kabi sher ma’nosidagi so‘zlardan *zirg‘om* tanlanishi sajning birinchi uzvida (bo‘lagida) *Bahrom* poetonimi kelayotganidir. Shu tariqa

xunafshonlig‘ osmonning Bahromi

↓ ↓ ↓

jonsitonlig‘ maydonining zirg‘omi

tarzida shakliy va mazmuniy muvofiqlik yuzaga keltiriladi.

NATIJALAR. Asarda sher tushunchasini anglatuvchi zoonimlar lingvopoetik jihatdan asosan quyidagi vazifalarni bajargan:

Saj’ hosil qilishda zoonimlar tavsif qilinayotgan shaxs o‘xshatilgan poetonimlarga muvofiqlashtirilgan. Buni yuqorida Rustam – *zayg‘am*; Bahrom – *zirg‘om* misollari orqali ko‘rdik. Quyidagi holatda xonning mohir jangchilaridan Zaynil eshtakka moslangan holda *hizabri teztak* (o‘ta chaqqon arslon) birikmasi yuzaga keltiriladi: “Zaynil *eshtakkim*, harb ma’rakasining *hizabri teztagi* erdi,..” (302^a)

XULOSA. Zoonimlar asarning o‘quvchi zehniga ta’sirini oshirishda muhim vosita vazifasini bajargan. Shuning uchun aksar holda ularga muayyan tavsiflar qo‘shish orqali ushbu ta’sir kuchi doirasi kengaytirilishi maqsad qilingan. Masalan, *sher* so‘zining o‘ziga na’ra tortib turgan ma’nosidagi jayon ژيان, o‘kirib turgan ma’nosidagi *g‘urron*, saflarni *yoruvchi* ma’nosidagi *safdar* yoki *safshikan* kabi sifatlar beriladi.

⁶ <http://arabus.ru/search/ضرغام>

Shuningdek, zoonimlarga ko‘chma ma’no yuklash orqali muarrix qator qo‘shma so‘zlar ijod qiladi. Birgina *sher* leksemasi tarkibli *shergir*, *shershukuh*, *sherboz*, *sherdillik*, *sherona*, *sherneru*, *sherafkan* kabi so‘zlar ishlatilganki, ularning katta qismi Ogahiy tarixiy asarlarida qo‘llagan okkazionalizmlardir.

Keltirilgan faktlar mumtoz tarixiy-adabiy asarda zoonimlar o‘ziga xosliklarini ochib berishga xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зарипов Б. П. Зоонимларнинг бадий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки (Алишер Навоий асарлари асосида): филол. фан. номзоди дис... – Тошкент, 2002. 128 бет
2. Саидова Х.А. Ўзбек тилида ҳайвон номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланиши: филол. фан. номзоди дис... – Тошкент, 1995. – Б. 27.
3. Зарипов Б. П. Зоонимларнинг бадий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки (Алишер Навоий асарлари асосида) филол. фан. номзоди дис. ... 2002. – Б, 13.
4. Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: филол.фан. фалс... докт... дис.: 2017 152 – Б. 12.
5. Энциклопедический словарь по тюркологии Гумбатова Гахрамана. Часть 1. – С. 59. //Электронный ресурс
6. <http://arabus.ru/search/> ضرغام

